

## ALISHER NAVOIY ASARLARI MANBALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Shohsanam SUYUNOVA,*

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti*

*tadqiqotchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiy tafakkuri va dunyoqarashi taraqqiyotida muhim o'rinn tutgan diniy – tasavvufiy adabiyotlar haqida so'z boradi.

O'z davrining murakkab asarlari sanalgan mazkur risolalarni mutolaa qilish va tushunish uchun maxsus tayyorgarlik talab etilgan. Alisher Navoiy she'riy tarzda yozilgan ushbu asarlarni o'qib, tafakkurini boyitgan, dunyoqarashini kengaytirgan, bilimini oshirgan.

**Kalit so'zlar:** Komil inson, masnaviy, tasavvuf, so'fiyona istilohlar, irfoniy asarlar.

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье говорится о религиозно-мистической литературе, сыгравшей важную роль в развитии мышления и мировоззрения Алишера Навои.

Для чтения и понимания этих трактатов, считавшихся сложными и авторитетными произведениями своего времени, требовалась специальная подготовка. Алишер Навои обогатил свое мышление, расширил кругозор, приумножил свои знания, читая эти поэтические произведения.

**Ключевые слова:** Совершенный человек, духовность, суфизм, суфийские концепции, мистические произведения.

### ABSTRACT

This scientific article talks about the religious – mystical literature that played an important role in the development of Alisher Navoi's thinking and worldview.

Special training was required to read and understand these treatises, which were considered complex and authoritative works of their time. Alisher Navoi enriched his thinking, broadened his outlook, and increased his knowledge by reading these poetic works.

**Keywords:** perfect human being, spiritual, Sufism, Sufi concepts, mystical works.

Avliyolarning murakkab kitoblarini o'qish kishidan maxsus tayyorgarlikni talab etgan. Olim Sha'roniy ta'biri aytganda, "Umuman olganda, xos tavhid kitoblarini hamda oriflarning asarlarini o'qish komil olim yoki o'sha qavmlarning yo'lini tutganlargagina haloldir [1, 51]". Yetuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy esa

naqshbandiya suluki a'zosi hamda komil inson sifatida bunga to'la haqli edi, deyish mumkin. "Endi so'fiyona adabiyotning murakkabligi haqida gap ketganda, shuni aytish kerakki, shoirlar bunga( diniy-so'fiyona g'oyalarni she'rga solishga) majbur edilar. Zero tasavvufni she'r bilan bayon etish – falsafani, ilohshunoslikni she'rga solish demak. Shu bois biz tasavvufiy adabiyot tom ma'nodagi falsafiy adabiyot deymiz. Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibnil Arabiy, Jomiy, Bedillar Sharqning buyuk faylasuflari, lekin ularning barcha irfoniy asarlari she'r bilan yozilgan. Irfoniy asarlarni ham ikki qismga ajratish mumkin: bir qismi tasavvuf ta'limotini bayon etgan, so'fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan asarlar. Chunonchi, Abulmajid Sanoyning "Haqiqatul haqoyiq", Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz", Jomiyning "Sharhu ruboiyot", Bedilning "Muhiti a'zam", Sayid Qosimiyning "Haqiqatnama", So'fiy Olloyorning "Sabotul ojizin", Bobojon Sanoyning "Kanzul maorif" asarlari bunga misoldir. Bu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa bo'ladi. Chunki mualliflar ushbu ta'limotni nazm orqali tushuntirishni maqsad qilib olganlar.

*Ikkinchi qism adabiyot tasavvuf g‘oyalari kechinma va hayajonlar, timsol va tamsillar orqali tasvirlanib, talqin qilinadi. Bu asarlarni tasviriy talqin yoki badiiy tafsir (interpretatsiya) deyish mumkin. Abulmajid Sanoiyning “Sayrul ibod”, Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, “Bulbulnomma”, “Ushturnoma”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy”, Xusrav Dehlaviyning “Matla’ul anvor”, Navoiyning “Hayratul abror” va “Lisonut tayr” asarlari shu xildagi asarlardir. Bu asarlarda so‘fiyona-falsafiy ma’nolar she’riy satrlar, badiiy-ifodali til bilan talqin etilishdan tashqari, yana juda ko‘p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehtar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan [2, 161-162]”.*

Binobarin, Navoiy va uning salaflari-ustozlari asarlarini tushunish uchun Navoiy davriga qaytish kerak. “Ma’lumki, Alisher Navoiy davrida boshqa ilmlar qatori, tasavvuf ilmi ham rivojlangan edi. Alisher Navoiy ham nashqbandiya tariqati soliklaridan edi. Binobarin, Navoiyni (Navoiy o‘qigan kitoblarni ham) tushunish uchun islomiy ilmlarni, jumladan tasavvuf ilmini ham bilish lozim bo‘ladi. Barcha ilmlar qatori, tasavvufning ham o‘ziga xos atamalari bo‘lishi tabiiy. Imam Buxoriyning gaplarini anglash uchun hadis ilmi istilohlarini, Ibn Sinoning so‘zlarini tushunish uchun tabobat atamalarini, Farobiyning fikrlarini ilg‘ash uchun falsafiy iboralarni bilish lozim bo‘lganidek, Navoiyning so‘zlarini to‘g‘ri tushunish uchun tasavvuf ahlining atamalarini to‘g‘ri tushuna bilish kerak bo‘ladi.

*Tasavvuf ahli namoyondalaridan bo‘lgan Alisher Navoiyning asarlari ham, tabiiyki, o‘scha istilohiy ma’nolar asosida talqin qilinishi shart. Aks holda shunday ulug‘ shaxsiyatga til tekkizgan, uning omonatiga ham, tarixga ham, ilmga ham xiyonat qilgan bo‘lamiz.*

*Navoiy quyidagi tarji'bandda qo'lida "singan sopol jom" bilan "xarobot"ga "may ichish" uchun kirgani qachon, qaerda va nima maqsadda bo'lganini bayon*

qiladi va o‘z so‘zlarining haqiqatan ham (yuqorida ta’kidlaganimizdek) tasavvuf istilohlari ekanini juda aniq ochib beradi:

*Tariqat sulukin kasb etgali,  
 Hamul kunki, bo‘ldi havoe manga.  
 Burun zuhdi taqponi aylab shior,  
 Dedimkim, yetishgay safoe manga.  
 Borib xonaqah ichra qildim maqom,  
 Bu ma’ni xud o‘ldi baloe manga.  
 Boqib xilvatu zikru sajjodani,  
 Zuhur etti har dam riyoe manga.  
 Bular dan o‘zimni xalos ayladim,  
 Ki to hosil o‘lg‘ay fanoe manga.  
 Xarobot aro kirdim oshuftahol,  
 May istarga ilgimda sing‘on safol.*

(Mazmuni:) O‘sha kuni men tariqat suluki, ya’ni tasavvuf yo‘nalishini hayotimga tatbiq qilishni istagan edim. Avvallari qalb musaffoligiga yetishay deb, zuhdi taqvoga qattiq berildim. Ammo ish men o‘ylagandek emas ekan: ixlossiz, muhabbatsiz ibodat naf bermas ekan. Keyin tasavvuf piri (Abdurahmon Jomiy ham bo‘lishi mumkin) huzuriga borib, uning ta’limini olishga kirishgan edim, bildimki, mening quruq zohiriy ibodatlar bilan yuksaklikka erishish haqidagi xayolim bir balo ekan. O‘zimni xilvatga olib, zikru namoz bilan mashg‘ul bo‘lganimda ham menda riyo illati zohir bo‘lar edi. Endi men bunday ibodatlardan, ya’ni odamlar ko‘ziga ibodat ko‘rinsa-da, aslida shaxsiy manfaatlarga qaratilgan, ixlosi yetarli bo‘lmagan zohiriy ibodat qilishdan kechdim. Maqsadim – fano maqomini hosil qilish: qalbda Allohdan o‘zgaga joy qolmasin, Unga qiladigan ibodatlarim, taqvolarimda ham Allohdan o‘zganing mulohazasi bo‘lmisin, Uni ko‘rib turgandek ibodat qilay, chin ixlos bilan toatda bo‘lishga erishay. Mana shu maqsadda murshid dargohiga oshuftahol kirib bordim. Qalbim nihoyatda siniq, shikasta, ayni vaqtda turli illatlardan qutila olmay halak edi. Istagim – Allohning sevgisi, ilohiy ishq nash‘u namosi edi.

Ha, Hazrat Navoiy demoqchilarki, “xarobot” deganim murshidning dargohi, “siniq safol” deganim shikasta qalbim, “may” deganim Allohga chin muhabbat va bandalikdir.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyni tushunish uchun Navoiy bilgan va foydalangan bilimlarni, ya’ni Qur‘on, Sunnat, shariat, tasavvuf va boshqa ilmlarni bilish, o‘rganish kerak bo‘ladi. O‘rganganda ham, asl manbalardan o‘rganish darkor. Buning uchun, albatta, o‘sha davr Islom olamida ilmiy muomalada bo‘lgan tillarni yaxshi o‘zlashtirib, manbalarni begonalarning tarjima yoki tavsiflari asosida emas, asl holatida o‘rganish talab qilinadi. Binobarin, navoiyshunos bo‘lishni istagan kishi avvalo Islom olimi, tasavvuf bilimdoni bo‘lishi, bu ilmlarni bilibgina qolmay, ularni

*o‘z hayotiga tatbiq etib, zikr qilingan darajalarni shaxsan o‘zi bosib o‘tishga intilishi lozim. Shundagina u Navoiyni to‘la tushuna oladi, u kishining shaxsiyatini to‘g‘ri anglab, so‘zlarini teran his qila biladi. Ochig‘ini aytganda, bugungi navoiyshunoslikning oldida turgan eng katta muammolardan biri shu bo‘lsa, ajab emas [1, 36-51]”.*

Darhaqiqat, Navoiy o‘qigan tasavvuf ilmiga oid kitoblarni o‘qish foydadan holi bo‘lmaydi. Chunonchi, “tasavvufga oid nazariy kitob va qo‘llanmalardan Abunasr Sarroj (vafoti 988)ning “Kitobal luma”, Al Kalaboziy (vafoti 990)ning “Kitobat ta‘arruf”, Abu Tolib Makkiy (vafoti 998 yil)ning “Qut al-qulub”, Sulamiy (vafoti 1021 yil)ning “Risolatal malomatiya”, Qushayriy (vafoti 1072 yil)ning “Risola fit tasavvuf”, Al Hujviriy (vafoti 1076 yil)ning “Kashfal mahjub”, Abdulloh Ansoriyning “Manozil as-soirin”, Fariduddin Attor (1119-1222)ning “Tazkirat ul avliyo” nomli asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari, Rumiy, Hofiz Sheroziy, Shabustariy asarlariga yozilgan sharhlar ham so‘fiyona ishora va tamsillarni anglashda muhim rol o‘ynagan [2, 20-21]”. Binobarin bunday noyob asarlar shaxs kamolotiga xizmat qilgan. Fikrimizni adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning quyidagi mulohazalari ham tasdiqlaydi: “Imom Rabboniy tasavvufga doir kitoblarni o‘qish hech vaqt hech kimga ziyon yetkazmasligini maxsus ta‘kidlagan. Albatta, tariqat, ma‘rifat, haqiqat yoki ishq va komillik sirlari yoritilgan kitoblardan odamlar foyda ko‘rsa ko‘radiki, zarar ko‘rmaydi. Ammo o‘sha kitoblar g‘irt avom, johil va nodon yoki fikr-qarashlari tor, qaysar olimlarning qo‘liga tushsa-chi? Bu juda yomon, albatta. Chunki, ularda ifodalangan ma‘no va haqiqatlar, birinchidan, jo‘n va noto‘g‘ri tushuniladi, ikkinchidan tasavvur etib bo‘lmas darajada xato hukmlar chiqariladi, xilma-xil yolg‘onlar to‘qiladi. Shuning uchun o‘tmishda sayru suluk hollarini o‘tay bilgan yoki tasavvufning bosh talablariga baholi qudrat amal qila olgan (tasavvuf ilmi bilimdoni bo‘lmish) kishilargagina tasavvuf haqida so‘zlash huquqi berilgan [3, 63]”. Zotan, adabiyotshunos Manzar Abdulkayr “Lison ut-tayr” so‘zboshisida yozganidek, “Ulug‘ mutafakkir Navoiy ilgari surgan ilg‘or g‘oyalar bizning davrimizda yanada o‘z qadr-qimmatini topmoqda. Biroq uyg‘onish davri adabiyotining yirik namoyandası Shekspir asarlari matnini hozirgi ingliz kitobxonasi to‘la-to‘kis tushuna olmagani singari hozirda Navoiy asarlari matnini ham maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan oddiy kitobxonning o‘qib anglashi ba‘zi bir qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Bunga sabab, birinchidan, oradagi qariyb olti asrlik davr bo‘lsa, ikkinchidan, Navoiy asarlari matnida to hanuz tushunilishi qiyin, sharhlanmagan so‘z va iboralarning mavjudligidadir. Shu sababli, sohir so‘z san’atkorining asarlarini hozirgi kitobxonga tushunarli uslubda yetkazishga ehtiyoj seziladi [4, 7-8]”. Zotan, Ahmad A’zam yozganidek, “shubhasiz, Navoiyni o‘qish uchun Navoiy kalomini egallash kerak. Shu bilan birga, Navoiy falsafasini anglab yetish zarur. Buning uchun qadimgi turk, fors va arab tillarini bilishning o‘zi kifoya emas – Sharq falsafasi, ayniqsa, tasavvufga oid

ko‘plab manbalarni sinchiklab o‘rganish lozim [5, 12]”. Islomshunos olim Hasanxon Yahyo Abdulmajid “Islom.uz” saytidagi “Hazrat Navoiyni tushunish sari” nomli maqolasidagi quyidagi fikrlari ham e’tiborga molik: “*Afsuski, bugungi kelib Navoiyni tushunadigan ahli ilmlar juda ham kam, deyarli yo ‘q bo ‘lib qoldi. Holbuki, u kishining ijodini o‘rganishga, targ‘ib qilishga eng haqli va mas’ul kishilar aslida ahli ilmlardir. Zero, Qur’on va hadisni o‘rganmay turib, Navoiyni yaxshi tushunib bo‘lmaydi*” [<https://islom.uz/maqola/13318>].

*Islom ilmlaridan boxabar kishilarning mumtoz adabiyotimizdan uzoq bo‘lishi, afsuski, ulug‘ shoirlarimizning she’riyatini noto‘g‘ri talqin qilinishiga, qadrsizlanishiga ham zamin yaratmoqda. Zotan, ahli ilmlarning ijtimoiy-ilmiy sohalarga beparvoligi ularning to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishiga olib keladi.*

*Navoiyning ijodi va hayotini xolis o‘rgangan har qanday inson u kishining ixlosu ilmini, xudojo ‘yligini e’tirof etadi, she’riyatdagi mahoratiga tan beradi, bu buyuk shaxs oldida ta’zim bajo keltiradi.*

*Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Alisher Navoiyning ijodini o‘rganish, mumtoz adabiyotimizni targ‘ib qilishga doimgidan ham ko‘proq muhtojmiz. Bu borada amaliy chora sifatida quyidagilarni aytish mumkin:*

1. Avvalo, adabiyotimizga uning asl ruhini qaytarish kerak. Dinsizlik tuzumi davrida qilingan bu zulmni bartaraf etib, asliga qaytarish payti kelganiga o‘ttiz yildan oshdi. Ammo hanuz o‘scha mudhish yetmish yillikning qora bulutlarini boshimizdan butkul yo‘qotib, quyosh nurlaridan bearmon foydalana olmayotirmiz. Shuni bilish lozimki, adabiyotimizga iyemoni islomni qaytarmay turib, uni tiriltirib bo‘lmaydi. U asrlar osha shu poydevor bilan yashab kelgan edi, bundan keyin ham faqat shu asosda yashay oladi, chunki u aynan ushbu ilohiy mayoq tufayli vujudga kelgan. Bundan boshqacha targ‘ibu tashviqlar ruhsiz suratdan nariga o‘tmaydi. Bu haqiqatni bir asrlik tajribada qayta-qayta ko‘rdik, bu borada qayta-qayta kuydik. Endi tezroq o‘zimizga kelib, chin ma’noda o‘zligimizga qaytishga tizimli ravishda intilishimiz darkor [<https://islom.uz/maqola/13318>].

2. Adabiyotga qiziqish, unda bahramandlik avvalo oilada bo‘lishi kerak. Uyda ota-onasiga va bobo-buvilardan hikmatli she’rlarni, zarofatlari so‘zlarni eshitib ulg‘aygan bolalarda adabiy ko‘nikma ona tili qatorida shakllanib, vujudga yaxshi singadi.

3. Bog‘cha-maktablarda va kasb-hunar bilim yurtlarida, shuningdek, diniy ta’lim muassasalarida ham mumtoz adabiyotni o‘rgatish ko‘lamini kengaytirib, darslarning saviyasini oshirish kerak. Buning uchun bu fanlardan maktabda ham soha mutaxassislari – aynan adabiyotshunoslar dars berishi kerak. Hozirda adabiyot darsini ko‘p joylarda oddiy o‘qituvchilar o‘tib qo‘ya qoladi. Shuning uchun adabiyot darsi maktabda mavjud bo‘lsa-da, deyarli hech kim uni uqmaydi, o‘qimaydi, natijada o‘quvchilarning bekor vaqtini ketgani qoladi, xolos. Qaysi fan bo‘lmasin, agar bu darsni

o‘z egasi o‘tsa, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladi va o‘tilgan bilim ularning zehniga yaxshi o‘rnashadi.

4. Ayrim adabiy asarlarni tartib bilan o‘qitib, hatto yodlatib borish mumkin. Bu an’ana aslida bizda oldin juda faol bo‘lgan. Masalan, bola Navoiyning “Arba’in” asarini hadislari bilan yodlasa, hadisi shariflar bilan birga qirqta ruboyni ham o‘zlashtirish mumkin. Navoiyning “Sirojul muslimin”, Boburning “Mubayyin” asarlarini o‘rgangan odam ayni paytda fiqhidan ham ancha masalani bilib oladi. Agar So‘fi Ollohyorning “Sabotul-ojizin” kitobini sharhlarini bilan puxta o‘rgansa, aqida, suluk borasida ham ancha bilimga ega bo‘lib qoladi. Bunga o‘xhash adabiyotimizda asarlar talaygina.

5. Mumtoz adabiyotimizni haqiqiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi asarlarni ko‘paytirish kerak. Ularni ommabop shaklda, bolalar uchun ham tushunarli shaklda nashr qilish darkor.

6. Har bir o‘zbek xonardonida adabiyotga doir kitoblar, adabiyot lug‘atlari bo‘lishi kerak. Farzandlar ularni oz-moz varaqlaganda ham o‘zlari sezmagan holda ancha narsa bilib olishadi [<https://islom.uz/maqola/13318>].

Adabiyotshunos Najmiddin Komilovning yozishicha, “Navoiy asarlarining hozirgi kitobxonlardan uzoqlashib borayotgani, har qancha achinarli bo‘lmasin, achchiq haqiqat. Lekin shoir asarlariga mehr qo‘ygan odam unga baribir yaqinlashib boraveradi. Bu mehrni o‘quvchilarda shakllantirish uchun birinchi galda, qiyin bo‘lsa ham, shoir asarlarini asl holida o‘qish va yodlashga e’tibor qilinsa, shoirning armoni, orzulari, fikrlari to‘g‘ri tushuntirilsa.

Bu sohaning oqsayotganiga sabab – Navoiy asarlarini to‘g‘ri tushunib, yaxshilab o‘quvchilarga yetkazib beradigan o‘qituvchilar kam. Hatto oliv o‘quv yurtlarida ham mumtoz adabiyotni yaxshi tushunadigan mutaxassislar tobora kamayib ketyapti. Hanuzgacha tasavvuf lug‘ati yo‘q. Navoiyni esa busiz tushunish mumkin emas.

Navoiy g‘oyalaringin tub mohiyati, ilohiy-tasavvufiy mag‘zi bir chetda qolib ketmoqda. Navoiy olamni Alloh yaratgan yaxlit borliq, Yaratuvchining qudrati va go‘zalligining ko‘zgusi deb biladi. Shoир insonga ham, uning axloqiy takomiliga ham shu nuqtai nazardan qaraydi.

Shoir ijodini butun tarkibiy qismlari, murakkabligi bilan idrok etmas ekanmiz, uning buyukligini ham tasavvur qilolmaymiz. Sharhlar, nasriy bayonlar tuzish, izohli lug‘atlar ham yaratish kerak.

Navoiy ijodi – bir kalit. Bu kalitni qo‘lga kiritgan odam mumtoz adabiyot sirlarini egallaydi, ham Sharq ma’naviyati xazinasiga eshik ochadi [7,317]. Adabiyotshunos Vahob Rahmonov yozganidek, “*Kelgisida millat qalbiga Navoiy haykalini o‘rnatishni, shoир asarlarini ko‘nglimizga jo qilish rejalarini tuzib olaylik. Va o‘z – o‘zimizga savol beraylik:*

*-Hozir O‘zbekistonda Alisher Navoiyni olimlar o‘qiydilarmi?*

-...Shoir va yozuvchilar o‘qiydilarmi?

-Keng kitobxonlar o‘qiydilarmi?

-O‘rta va oliv mакtab, o‘rta bo‘g‘in ta’limgohlari o‘quvchi-talabalari o‘qiydilarmi?

*Ana shu so‘roqlardan xulosa chiqarib, so‘ng javob bermoq lozim.*

*Qo‘rgamanki, millatimiz mumtoz adabiyotni esdan chiqarishga ulgurmadimikan? Nafaqat Navoiy ijodini...*

To‘g‘ri, maktab darslik va majmularida mumtoz adabiyot namunalari anchagina bor. Biroq, qaysi o‘quvchi uni tushunadi? Qaysi o‘qituvchi tushunib o‘qitadi? Metodikasi maqbulmi? Bir betdagи matndan ellikta so‘zni tushunmaydigan o‘quvchiga mumtoz adabiyot yot hodisa emasmikan, degan xavotirlarim rost chiqmasin, ishqilib...

Zero, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning o‘nlab pog‘onalari borki, buni keng mulohaza maydoniga olib chiqish zarur:

Birinchidan, Navoiyning milliy – madaniy ideal va faxr darajasini aniqlab, o‘rnini belgilash;

Ikkinchidan, bog‘chadan boshlab, bog‘cha bolasi tushunadigan tilda shoirimiz asarlarini bolajonlar qalbiga yetkazish;

Uchinchidan, o‘rta umumta‘lim maktablarida Alisher Navoiy ijodini yanada chuqur o‘rganish uchun mashhur navoiyshunoslar va maktab o‘qituvchilari hamda yozuvchilar hamkorligida o‘quvchibop Navoiy asarlarini yaratish;

To‘rtinchidan, akademik litseylar, kollej va gimnaziyalar talabalariga o‘qish imkonini beruvchi Navoiy asarlarini tayyorlash;

Beshinchidan, oliv filologik universitetlar talabalarining Navoiyni har tomonlama o‘rganishlari sharoitini yaratish. Buning uchun Navoiy asarlari mukammal lug‘atini tuzish; Navoiy matnshunosligi va poetikasi tadqiqotlariga talaba, magistr, aspirantlar, professor – o‘qituvchilarni jalb etish;

Oltinchidan, akademiya ilmiy – tadqiqot institutlari mutaxassislari ishtirokida Navoiy ijodini ko‘p tomonlama ilmiy tadqiq etishni ta’minalash; “Navoiy qomusi” nashrini tezlashtirish va uni zamon talabi darajasida bajarish;

Yettinchidan, Navoiy ijodidan umumxalq bahramandligi muammosini hal qilish. Buning uchun shoir asarlarini hozirgi o‘zbek tilidagi nasriy bayonlari saviyasini yuksaltirgan holda nashr etish;

Sakkizinchidan, Navoiy dostonlari janrini saqlagan holda hozirgi tilda ifodalash, ya’ni tabdilini bajarish;

To‘qqizinchidan, Navoiy g‘azallarini ham janrini saqlagan holda tabdillashtirish;

O‘ninchidan, Navoiy she’riyatining qolgan janrlarini ham goh tarjima, goh tabdilda hozirgi adabiy tilda ifodalash zarur.

*Hozirgidek, Navoiy ijodi bilan tanishish maktab darslik va majmualari doirasida qolar ekan, bu ahvolga har bir ziyoli qattiq qayg‘urmog‘i joiz. Alloh bizga Alisher Navoiydek shaxs va adabiy dahoni bergen ekan, o‘zbek xalqi o‘zini uning vorisi hisoblar ekan, merosdan bahramandlik baxti har bir o‘zbekman degan kishi uchun nasib etishini ta’minlash davlat va ziyolilarimizning eng oliyjanob burchi bo‘lib qolaveradi [8, 431-438]”.*

Muxtasar aytganda, o‘z davrining diniy – tasavvufiy manbalari Alisher Navoiy tafakkurini shakllanishida yetakchi rol o‘ynagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Alisher Navoiy. Navoiydan chu topqaylar navoe. T.: “Hilol-nashr”, 2014. 51-b.
2. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1996. 161-162-b.
3. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. T.: Sharq NMAK BT-2007. 63-b.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T.: Yangi asr avlodi, 2019.-B.7-8.
5. A’zam A. Abrorlar hayrati.// Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2021.-№ 6.-B.12.
6. <https://islom.uz/maqola/13318>
7. Komilov N. Xizr chashmasi. T.: Ma’naviyat, 2005.-B.317.
8. Rahmon V. Mumtoz so‘z sehri. T.: O‘zbekiston, 2015.-B.431-438.